VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 5 312,0 mln. AQSh dollarini va o‘sish sur’ati 115,4 %ni, jumladan 2 011,4 mln. AQSh dollarini – eksport operatsiyalari yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,6 %ni, 3 300,6 mln. AQSh dollarini – import operatsiyalari yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 117,1 %ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi *(mln. AQSh dollari)*

	yanvar-dekabr		*2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida*
	2020- yil	*2021- yil*	
Tashqi savdo aylanmasi	**4 604,2**	**5 312,0**	**115,4**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	2 138,6	2 524,2	118,0
boshqa davlatlar	2 465,6	2 787,8	113,1
Eksport	**1 786,1**	**2 011,4**	**112,6**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	650,1	691,9	106,4
boshqa davlatlar	1 136,0	1 319,5	116,1
Import	**2 818,1**	**3 300,6**	**117,1**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	1 488,5	1 832,3	123,1
boshqa davlatlar	1 329,6	1 468,3	110,4

Viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi, *%da*

2020- yil yanvar-dekabr



	Savdo aylanmasi	Eksport	Import
MDH davlatlari	46,4	36,4	52,8
Boshqa davlatlar	53,6	63,6	47,2

2021- yil yanvar-dekabr



	Savdo aylanmasi	Eksport	Import
MDH davlatlari	47,5	34,4	55,5
Boshqa davlatlar	52,5	65,6	44,5

**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida
viloyat eksport-importi tarkibi**

	Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida		*2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida*
	2020- yil yanvar-dekabr	*2021- yil yanvar-dekabr*	
Eksport tarkibi	**100,0**	**100,0**	**112,6**
paxta tolasi	0,7	0,02	2,6
oziq-ovqat mahsulotlari	15,8	11,7	83,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	3,3	5,2	177,4
energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	0,03	10,4 m.
qora va rangli metallar	57,5	57,5	112,6
mashina va uskunalar	2,2	1,8	93,8
xizmatlar	0,7	0,5	80,2
boshqalar	19,8	23,3	131,7
Import tarkibi	**100,0**	**100,0**	**117,1**
oziq-ovqat mahsulotlari	16,0	17,4	127,6
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	8,9	10,3	136,4
energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,7	2,5	78,9
qora va rangli metallar	13,6	11,4	98,0
mashina va uskunalar	34,4	29,2	99,4
xizmatlar	1,8	1,0	64,4
boshqalar	21,6	28,2	152,5

Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushiga ega bo‘lib, bular asosan qora va rangli metallar (57,5 %), boshqa turdagi tovarlar (23,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (11,7 %), paxta tolasi (0,02 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,2 %), mashina va uskunalar (1,8 %), shuningdek, xizmatlar (0,5 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (*mln. AQSh dollari*)



Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (29,2 %), qora va rangli metallar (11,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (17,4 %) hamda boshqa mahsulotlar (28,2 %) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi

(*mln. AQSh dollari*)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi

	Viloyat tovar aylanmasida ulushi, % hisobida	*2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida*
Rossiya Federatsiyasi	21,6	111,5
Turkiya	17,7	138,4
Qozog‘iston	17,6	118,7
Xitoy	14,7	101,5
Braziliya	3,4	6,4 m.
Ukraina	2,8	2,4 m.
Koreya Respublikasi	2,7	74,2
Belarus	1,9	2,7 m.
Tojikiston	1,6	107,0
Germaniya	1,4	96,6
Afg‘oniston	1,4	60,5
Qirg‘iz Respublikasi	1,2	67,5
Italiya	1,1	123,9
Litva	1,0	105,4
Niderlandiya	0,9	156,0
Irlandiya	0,8	147,6
Polsha	0,6	134,2
Singapur	0,6	153,2
Eron Islom Respublikasi	0,6	2,1 m.
Qatar	0,5	2,9 m.

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Xitoy va Braziliya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 75,0 %ini tashkil qiladi. Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Xitoy va Braziliya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi %da

Eksport



Import



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,5 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 18,0 %ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 52,5 %ni tashkil qildi (2020- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,6 %ga teng bo‘lgan).

Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)



So‘nggi yillarda Hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 247,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 159,7 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o‘zgarish sur’ati – 84,0 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 163,9 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 99,4 mln. AQSh dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda 5,0 %ga o‘sgan.

Shuningdek, 45,4 ming tonna meva va rezavorlar 34,8 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 52,8 %ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr,
mln. AQSh dollari

Meva va rezavorlar
45,4 ming tonna
34,8 mln. AQSH dollari

Uzum
27,0 ming tonna
20,0 mln. AQSH dollari

Qovun va tarvuzlar
8,5 ming tonna
2,3 mln. AQSH dollari

Yeryon-g'oqlar
2,7 ming tonna
3,1 mln. AQSH dollari

Sabzavotlar
163,9 ming tonna
99,4 mln. AQSH dollari

Shuni aytib o‘tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 134,3 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, umumiy eksportdagi ulushi 6,7 %ni tashkil etdi.